



IBRATNING TURKISTONDA KADRLAR TAYYORLASHGA QO'SHGAN HISSASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Muallif: Isaqova Zamiraxon Ruhitdinovna¹, Abdullaxo'jayev Adxamxo'ja Isaxo'ja o'g'i²
Affiliatsiya: falsafa fanlari doktori (DSc), professor Namangan davlat universiteti¹,
tadqiqotchi, Qo'qon universiteti²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14542870>

ANNOTATSIYA

Is'hoqxon To'ra Ibratning Turkistondagi kadrlar tayyorlashga qo'shgan hissasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Jadid harakatining bir vakili sifatida, u maktablar islohoti va kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor bergan. Uning faoliyati va ilmiy yondashuvlari, ayniqsa, Turkistonning ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan edi.

Kalit so'zlar: mактаб, islohot, tarbiya, kadr.

Maktab asl-ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i sanaladi. Uning islohi har zamon va makonda ilmni rag'bati va holisona baholanishi bilan belgilanib kelinadi Jumladan, millat oydinlari bo'lgan jadid ziyolilarining milliy kadrlar tayyorlash borasida olib borgan ibratli faoliyati bugun barchamizga namuna o'rnat o'laroq keltirib kelinmoqda. Muammo ta'limdi, uni yetkazishda mavjud resurslarni kamligidami,yoki asl mohiyatan muammoli jarayon pedagoglarimizda yetishmayotgan zamonaviy va ksabiy malaka va mahoratdamiz degan savollar qarshisida bosh qotayotgan bir davrda biz jadidlar falsafasi millatni yuksalishing asosiy fundamental omil o'laroq keltirishni o'rinli deb topdik. Is'hoqxon To'ra dastlab Turkistonda 1886-yilda qaytadan yangi bepul mактаб ochgan. Uning mактabi "usuli qadim" ("usuli tahajji"), ya'ni hijo usuliga asoslangan mактabdan farq qilgan. "Usuli jadid demak yangi qoida, yangi tartib demakdur desak, hama qabulga olmagan edilar. Gardishi ovon va xohishi zamon ila o'zi-o'zicha joriy bo'lib ketti. Avvalgi vaqt dagi mahalla mактabida banda o'zum necha yilda uch-adad muallimda o'qib oxiri savodim chiqmay, keyin o'z uyimizda joriy qizlar mактabida, voldai marhumamda o'qub, savod chiqordim. Ikki sana qiblagohimda husnixat mashq etdum. Boqing, mahalla mактabida usuli qadimda yetti yil umrni zoyi' etub, o'quv-yozuvni bilgon edum. Mana emdi banda o'zum usuli savtiyani(ng) avlodni islomg'a yordamini ko'rub, o'z masjidimizg'a mактab ochdim. Bir sanada ko'b yoshlar, hattoki katta yoshga kirgan tujjorlardan o'qub, xat-savodini chiqorub, ma'ishat va tijoratlarida osonliklar mushohada qildilar. Mana zamoni(ng) mezoni vazn bo'ldi. Har zamon (ning) o'ziga qarab, ilmu hunar kasbi darkor"

Is'hoqxon To'ra yangi mактabga tovush (savtiya) usulini tatbiq qilib, bir muddat "usuli saytiya"ni eski usul taraf dorlaridan himoya qilgan. Shunga qaramay, yangi mактab

¹ Is'hoqxon To'ra Ibrat. Mezon uz-zamon/ Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 176-bet



faoliyati uzoq davom etmagan. Johil va mutaassib kishilar yangi mактабни "kofirlar maktabi" deb e'lon qilib, bolalarni maktabdan qaytarishga, general-gubernator gumashtalari yordamida yangi mактабни yoptirishga muvaffaq bo'lishgan.

Ilм-fanda yaratilgan har bir ilg'or yangilikdan xalqni bahramand etishni maqsad qilgan Is'hoqxon To'ra 1908 yilda "Fotografiyai Is'hoqiya" nomli rasmxona ochgan, Namanganning bir asr awvalgi qiyofasi qanday bo'lgani, ota-bobolarning turmush tarzlar, urf-odatlari, kiyinish madaniyati haqida hikoya qiluvchi suratlar, noyob tarixiy lavhalar shu kunlargaacha yetib kelgan.

Taqdir zarbalariga metin iroda bilan qarshi turgan Ishoq-xon To'ra ta'qib va tuhmatlarga e'tibor bermay, qiyin sharoitda ham ma'rifatparvarlik faoliyatini davom ettirgan. Is'hoqxon Ibrat komil inson sifatida "...dunyoning sonsiz mehnat va anduhlarindin va guruhi kajraftor ta'nalarindin bir zarra qadar o'lsa-da, maluliyat hosil etmadи"², 1907 yilda Ibrat To'ra yana maktabdorlik faoliyatini yo'lga qo'yib, o'z uyida "savtiya" usuliga asoslangan yangi mактаб ochgan. Maktabda ilk bor 30 nafar qishloq bolalari ta'lim olishgan. Is'hoqxon To'ra o'qish-o'qitish tizimini o'zi tuzgan dastur asosida olib borib, haftalik dars jadvalini joriy qilgan hamda mashg'ulotlar qatoriga badantarbiya darsini ham kiritgan. Badantarbiya darsi "Is'hoqiya bog'i" da o'tkazilgan.

Mактаб yorug' derazali katta xonaga joylashgan bo'lib, o'quvchilar yangi o'quv qurollari - parta, stol-stul, darsliklar, qora taxta (doska), daftar bilan bepul ta'minlangan. Maktabda Is'hoqxon To'ra bilan birga ko'plab ustozlar faoliyat olib borishgan. Husayn Makeev³ va uning rafiqasi Fotima Makeeva⁴ o'quvchilarga rus tilidan saboq berishgan.

Is'hoqxon Ibrat Husayn Makeevning pedagogik faoliyatini yuqori baholagan: "Qozon tarafindan bir muallim jalb edub, mактаб qilib berdim. Mакtabning qushodig'a (tashkil bo'lganiga) uch oy bo'lg'ani yo'q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o'n beshta odamlar "alif nima?" degan savolina "kaltak" deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgan bo'ldilar"⁵.

Is'hoqxon To'ra bolalarni maktabdan bezdiruvchi, ularda muallimga nisbatan hurmat-ehtirom o'miga nafrat uyg'otuvchi tan jazosi (kaltaklash, quloq cho'zish, jismoniy qynoqqa solish, qo'lini ko'targizib, burchakka turg'izib qo'yishiga qarshi chiqqan. Uning nazarida maktabda ham, oilada ham bolalarni kaltaklab tarbiyalash noto'g'ri va natijasiz usuldirki, ta'lim- tarbiya sohasida kutilgan natijaga erishish uchun avvalo, millatning ongi va tafakkurini o'zgartirish lozimdir.

Is'hoqxon To'ra mактабни kengaytirish, zarur o'quv qurollar bilan ta'minlash, o'qitish saviyasini yuqori ko'tarish maqsadida boshqa yangi mактабlar faoliyatini o'rgangan, lozim bo'lsa fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashgan. Imtihon olish tizimini ham yangicha usulda tashkil etgan.

² Haqso'z. Xo'qand, Ibrohim Davromn/Turkiston viloyatining gazeti. 1908. 56 son/ Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 158-bet.

³ Makers Husayn Saratov guberniyasi, Xvalinsk uyedi, Yangi Kulatka qishlog' ida tug'ilgan, 1901 yilda Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari bosh inspektor Keneriskiyning ruhsati bilan Yangi Marg' ilonda ochilgan maktabda ishlagan 1917 yildan boshlab To'raqo'rg'ondagи bosmasona hamda yangi maktabda ish faoliyatini davom ettirgan. "Farg'ona sahifari", "Ichchilar qalqoni" nomli gazetalarni tashkil etishda faoliyk ko'rsatgan. 1937 yili xalq dashmani sifatida qatag'on qurban ni bo'lgan.

⁴ Makeeva Fotima-avval To'raqo'rg'onda, so'ng Namanganda 1919 yilda ilk bor ochilgan o'zbek xotin-qizlari maktabida o'qituvchilik qilgan. Ayollar o'rtasida savodsizlikni tugatish, paranji tashlash ("Hujum") harakatida faol ishtiroy etgan.

⁵ Ibrat Eski mактабlar xususida // Turkiston viloyatiring gazeti 1907 yil. № 72./ Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 155-bet.

Munavvarqorining taklifiga binoan bir necha marta Toshkentga borib, imtihonda qatnashgan. Munavvarqori 1907 vilda Is'hoqxon To'ra ga taklif xati bilan murojaat qilgan: "Hurmatlu Is'hoqxon hoji janoblarinal

1907-yil may oyindan e'tiboran Toshkandda Tarnovboshi mahallasinda "Xoniya" mактабинде talabalarni yillik imtihonlari boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobeingizda bo'lг'on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon maj lislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar sizdin mamnun bo'lur edilar. Muhibingiz Munavvarqori. 15 mart 1907 yil". Is'hoqxon To'ra Toshkentga Husayn Makeev, Mulla Iskandar domia Abduvahob o'g'li bilan borib, u yerdagi "usuli savtiya" hamda "usuli qadim" maktablari faoliyati bilan tanishgan. Bu boradagi o'y-fikrlarini "Turkiston viloyatining gazeti" da chop etilgan dolzarb mavzudagi maqolalarida bayon etgan. Madaniyat va ma'rifatga oshno qalb egasi Is'hoqxon Ibrat shaxsidagi namunali jihatlardan biri uning xorij mamlakatlaridan esdalik uchun olib kelgan antiqa osori atiqalardir⁶. Jumladan, Ishoqion To'ra Makka ziyoratidan olib kelgan buyumlari ichida noyob uzuk bo'lib, urukning ko'zini yorug'likka tutib, uzuk ko'ziga diqqat bilan qaralsa, muhtasham Ka'ba surati namoyon bo'ladi. Uzukning ko'zi juda kichkina bo'lsa ham, suratni bir necha yuz barobar kattalashtirib aks ettiradi. Uzuk Ibrat To'ra ning qizlariga meros qolgan. Hozirda uzuk Is'hoqxon To'ra ning Vaqqosxon ismli nevara kuyovlarining shaxsiy mulki hisoblanadi⁷.

Ibrat To'ra ning uyida maxfiy g'aladon bo'lib, 1937 yil 14 mart tunidagi tintuvda uning siri ochilmagan va Is'hoqxon To'ra qalamiga mansub bir qator bitiklar, jumladan, "Tarixi Farg'ona" asarining qo'lyozmasi saqlanib qolgan. Ibrat To'ra ning nabirasi Jamilaxon Nizomova bilan suhbatimizda uning onasi Zarifaxon (Is'hoqxon To'ra Ibratning qizi) arab yozuvidagi "Farg'ona tarixi"ni avval lotin, so'ng krill yozuviga ko'chirgani⁸, bu ashyolar Ibrat To'ra ning avlodlari qo'lida ekanini ta'kidladi. Is'hoqxon To'ra inqilobga qadar va sho'rolar davrida yigirma yildan ortiq (1897-1924 yy.) To'ra qo'rg'on va Xonobod qishloqlarida qozi lavozimida ishlagan. Faoliyati davomida xalq manfaatini ko'zlab, halollik, to'g'rilik va adolat bilan ish olib borgan. Is'hoqxon To'ra "usuli savtiya" maktablarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash ishida ham bosh qosh bo'lib, "Matbaai Ishoqiya"da darslik va o'quv qo'llanmalar nashr ettirgan. Is'hoqxon To'ra xalqni ilm-ma'rifatga targ'ib etish bilan bir ga ularni mozorlarga sig'inish, folbinlarga borish, muqaddas qadamjoylarda "is" chiqarish kabi xurofot va bid'atdan qaytargan. Is'hoqxon To'ra tabiatan ochiqko'ngil va mehmondo'st bo'lgan. Namanganga kelgan ilmi irfon ahli va adabiyot ixlosmandlari Is'hoqxon To'ra ning uyiga kelishgan. Uning hovlisida ekilgan to'rt tup archa o'rtasidagi peshtoq va ustunlar bilan bezatilgan ravoq hamisha mehmonlar bilan gavjum bo'lgan.

1897-yilning yoz fasilda qo'qonlik shoir va mutafakkir Muhammad Aminxo'ja Muqimi Gulboqqa tashrif buyurgan. Gulboqqa kiraverishda Ovro'pa usulida qurilgan arkni ko'rgan Muqimi hayratlanib, Is'hoqxon To'ra ning bunyodkorlik ishlariga tahsinlar aytgan. Bir piyola choy va diltortar suhbatdan so'ng gulbog'ni aylangan Muqimiyning hayrati o'n chandon oshgan. Marmardan yasalgan favvoraga "girdak", ya'ni charspalak yordamida suv kelib, yuqoriga otilegan va go'zal manzara hosil qilgan.

⁶ Ishoqxon To'ra xorij safaridan olib kelgan buyumlarning aksariyati uning farzandlari, qarindosh-urug' lari, do'stlari va yaqinlari qo'lida saqlanib kelinmoqda.

⁷ Z.Isaqova.Is'hoqxon To'ra Ibrat.G'.G'.Toshkent-2018,145-bet

⁸ Z.Isaqova.Is'hoqxon To'ra Ibrat.G'.G'.Toshkent-2018,146-bet

Favora yonidagi ikki qavatli Ovropa usulida qurilgan mehmonxonaning atrofi xorijdan keltirilgan anvoyi gullar, manzarali daraxtlar bilan o'ralgan. Favvoraning bir tarafidagi tennis o'ynaladigan ayvon Muqimiyni yana ham hayratga solgan. Ibrat To'ra xalq turmush tarzi va madaniyatini yanada yuksaltirish uchun kelajakda amalga oshiradigan ezgu maqsadlari haqida so'zlab bergen. Go'zal manzaradan ilhomlangan Muqimiy Ibrat To'ra bilan she'rxonlik qilishgan. Ibrat To'ra Muqimiyga "Ilmi Ibrat" nomli she'rlar to'plami hamda "Lug'ati sitta al-sina" nomli asari qo'lyozmalarini ko'rsatgan.

Is'hoqxon To'ra ma'rifatparvarlik, millat va Vatan taqdiri, g'oyalari mujassam bo'lган maqolalar yozib, xalqni jaholat, turg'unlik va g'aflatdan ma'nан uyg'otishga, ilm-ma'rifat va hunar egallashga, dunyoning ilg'or mamlakatlari taraqqiyotiga yetib olishga chorlagan. Serqirra ijodkorning jo'shqin faoliyati 1937-yil yanvarigacha davom etgan. 1937-yil 7-yanvarda Is'hoqxon To'ra ni qamoqqa olishga, lavozimi bekor qilinib, mol-mulklarini musodara qilishga buyruq berilgan. Ibrat To'ra xonardonidagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar to'rtta qanor qopga joylanib, olib ketilgan. Uy-joylari musodara qilinib, kimoshdi savdosida sotib yuborilgan. Oilasi va farzandlari uch sotixdan iborat quruq yerga chiqarib qo'yilgan. Andijon turmasiga olib ketilgan Is'hoqxon To'ra ikki oy davomida tuz tolmay, muttasil ro'za tutgan. Sud jarayonlari tugamay, 75 yoshida qamoqda vafot etgan. Zulm va zo'ravonlikka qurilgan mustabid, beshafqat tuzum davrida o'zligini, millat qadr-qimmatini teran anglagan, ijtimoiy-siyosiy ongi yuksak, ma'rifat va ma'naviyat yo'lida fi-doyilik ko'rsatgan yurt ma'rifatparvarlarining jasadlari tepalik va jarliklarda nom-nishonsiz qolib ketgan.

Is'hoqxon To'ra Ibratning qabri ham qayerda ekani hozirga qadar noma'lum. Shunga qaramay, Ibrat To'ra ning avlodlari Andijon paxta zavodi yonidagi qabristondan otalarining xokini olib kelib, Namangan tumani Mullakuding qishlog'idagi Ibrat To'ra ning ajdodlari yotgan qabristondagi ramziy qabrga ko'mishgan⁹.

1959yil 2-oktyabrda Andijon viloyat prokuraturasining 3336-sonli hujjatiga ko'ra, umrini ma'rifat va ezgulikka bag'ishlagan Is'hoqxon To'ra aybsiz deb topilib, to'la oqlangan.

Shuningdek Ibrat domla 1902-yil dekabrda Anmjonda sodir bo'lган zilzila haqida she'r yozib, zilzilaning sababini mamlakatda halollik va barakaning yo'qolishi, zulm, kizb va kufrning ko'payishi, fitna-fasod va ig'vo, adolatsizlikning avj olganligidan deb izohlab, talofatni bartaraf etish uchun birlashish, jipslashish, to'g'ri yo'lidan yurish lozimligini ta'kidlagan.

1913 yil yozida Toshkent arxeologiya jamiyati Aksi tarixiga bag'ishlangan ilmiy anjuman uyuşhtirgan. Is'hoqxon To'ra "Farg'ona oblastidagi qadimiy Aksi shahrining tarixi" nomli ma'ruza bilan ishtirot etgan. Anjuman materiallari vaqtli matbuotda muntazam yoritib borilgan. Is'hoqpon Ibrat Aksi shahrining paydo bo'lishi, shahristonga aylanishi, vayron bo'lishi, keyingi holati haqida mulohaza yuritishda qimmatli manbalar hamda arxeologik topilmalarga asoslangan. Is'hoqxon To'ra Yoqut Hamaviy hamda Zahiriddin Muhammad Boburning asarlariga tayanib, Aksi shahrining qadimiy shahar ekani, uning tarixini yozish lozimligini ta'kidlagan "Farg'ona oblastida qadimgi zamonalarda poytaxt bo'lub turgan Aksi yoki Axsiket degan katta shahar bo'lган ekan. Bul kunlarda mazkur shaharning o'mi va asorati yaxshi ma'lumdur. Chunonchi,

⁹Z.Isaqova.Is'hoqxon To'ra Ibrat.G' .G' .Toshkent-2018,145-bet

Namangan uyezdig'a tobe xuddi Namangan shahridin o'n besh chaqirim masofada Aksi bo'lustida daryo labida bir necha qishloqdin iborattdur. Bul xususda tavorix kitoblardin mazkur Axsikat xususida xabar olib, tavorix uchun biror risola tasrif qilmoq lozimdir"¹⁰. Is'hoqxon To'ra Aksi haqida: "Axsikat Movarounnahrda Farg'ona doxilida bir qasaba o'lub, Sayhun daryosining shimol tarafidagi qasabalarining biri Axsidur. Kitoblarda bitadurlar, chunkim Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qdur. Andijondin g'arb tarafida to'qquz tosh yo'ldur. Umar Shayx Mirzo muni poytaxt qildi. Bir-ikki martaba tashqariroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur"¹¹ deb ta'riflagan.

Xulosa qilib aytganda, maktab, har doim, nafaqat ilm-fan o'chog'i, balki milliy ma'naviyatning saqllovchisi va yuksaltiruvchisi sifatida qaralgan. Turkistonning jadid harakati, jumladan, Is'hoqxon To'ra Ibratning kadrlar tayyorlashga bo'lgan hissasi o'ta muhim ahamiyatga ega. Is'hoqxon To'ra, jadid ma'rifikatparvarlari bilan birlgilikda, millatni taraqqiy ettirish uchun zamonaviy ta'lif tizimi yaratishga va uni joriy qilishga intilgan. Uning maktab islohoti, o'qitishning sifatini oshirishga qaratilgan harakatlari bugungi kunda ham o'rnak sifatida ko'rilmoqda. Is'hoqxon To'ra, maktabni faqat bilim beruvchi muassasa sifatida emas, balki milliy kadrlar tayyorlovchi poydevor sifatida ko'rgan. U maktab islohoti orqali, eng awvalo, jamiyatni yuksaltirishni ko'zlagan. Bu jarayonda, u ilm-fan va ma'naviyatni uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Jadidlarning asosiy g'oyasi, maktabda yangi yondashuvni tatbiq etish edi. Is'hoqxon To'ra maktablarni faqat ilmiy bilim berish o'chog'i emas, balki yoshlarni ma'naviy jihatdan shakllantiradigan joy deb bilgan. Ibratning islohotlari asosan ikki yo'nalishda namoyon bo'lgan. Birinchisi, o'qituvchilarining malakasini oshirish, ikkinchisi esa, yangi pedagogik usullarni tatbiq etish edi. U "usuli jadid" maktablarini ochish orqali, eski usullarni yangilashga va zamon talablariga javob beradigan ta'lif tizimini yaratishga harakat qildi. Bu maktablarda rus tili va dunyoviy fanlar, xususan, matematika va tarix kabi fanlar ham o'qitilardi, bu esa o'quvchilarining zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishiga yordam berdi. Is'hoqxon To'ra yangi maktablar yaratish bilan birga, o'quv jarayonini yanada samarali qilish uchun zaruriy o'quv qurollarini taqdim etdi. Ularning boshida yangi ta'lif dasturlari, darsliklar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini nashr etish masalasi turardi. 1907-yilda u "Matbaai Is'hoqiya"ni tashkil etib, o'quv materiallarini ishlab chiqishga e'tibor qaratdi. Shuningdek, yangi maktablarda fizika va san'at kabi fanlarni ham o'qitishga harakat qilindi. Ibrat o'quvchilarga nafaqat ilm, balki hunar va jismoniy tarbiya berishga alohida e'tibor qaratdi.

¹⁰ Is'hoqxon To'ra Ibrat. Istoriya dnevnego Aksi v Ferganskoy oblasti (Farg'ona oblastidagi qadimiy Aksi shahrining tarixi) Turkiston viloyatining № 48. 1913 yil 23 iyun/ Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar 144-145-betlar.

¹¹ Is'hoqxon To'ra Ibrat. Istoriya dnevnego Aksi v Ferganskoy oblasti (Farg'ona oblastidagi qadimiy Aksi shahrining tarixi) Turkiston viloyatining № 48. 1913 yil 23 iyun/ Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar 145-bet.